O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich

2026 - yil 5 - iyundagi 284008 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: “Toshkent shahri, Chilonzor tumanidagi Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi ilmiy-amaliy tibblyot markaz hududida bemorlarning hamroh va kuzatuvchilari uchun alohida “Kutish zali" binosini qurish” ishchi loyihasi.
Buyurtmachi: TOSHKENT SHAHAR HOKIMIYATI YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYASI DUK
Bosh loyihachi: "BEST GEO MAPS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai: Davlat byudjed mablag'lari
Bosh pudratchi: Tender savdolari orqali aniqlanadi.
Qurilish turi: Yangi qurilish
Murojaat raqami: 121270

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar hokimining 2025-yil 2-oktabgdagi 705-14-0-Q/25-sonli qarori.

1.2. Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi ilmiy amaliy tibbiyot markazi bilan kelishilgan va Toshkent shahar hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi tomonidan 2025-yilda tasdiqlangan loyihalash topshirig’i.

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2025-yil 24-oktyabrdagi 1726-1726294-243140-sonli Arxitektura- rejalashtirish topshirig‘i.

1.4. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 2025-yil 5-noyabrda tuzilgan 201437-sonli shartnoma.

1.5. “Toshkent shahar suv ta’minoti” AJ ning 2025-yil 20-noyabrdagi 270/4-5145-sonli obyektning shahar ichimlik va oqova suv tarmoqlariga ulanishni loyihalashtirish uchun texnik sharti.

1.6. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Toshkent shahar elektr tarmoqlari” MChJ ning 28.11.2025 yil 26294135764-sonli texnik shart.

1.7. Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha ilmiy-tekshirish instituti “O‘ZGASHKLITI” MChJ Toshkent shahar va viloyat filiali tomonidan 2025-yilda berilgan muhandislik–geologik tadqiqotlar natijalari bo‘yicha texnik hisobot.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra «ishchi loyiha» ning taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonchasining ma’lumotlari.

Tashqi havo haroratining qishki xisobi -minus 17°S

Normativ qor qatlami vazni - 50 kg/m²

Normativ shamol bosimi 38 kg/m

Toshkent shahar mikrorayonlashtirish seysmik xaritasiga ko‘ra zilzilabardoshlik -9 ball.

Bino uchun asos bo‘lib MGE-1 va MGE-2 gruntlari xizmat qiladi.

Birinchi muhandislik-geologik element (EGE-1) qo‘ng‘ir, makrog‘ovak va qattiq yossimon tuproqlardan iborat. Bu birinchi elementning tuproqlari 1,9-2,1 m chuqurlikdan 10,5 m chuqurlikgacha cho'ziladi. Ochiq qalinligi 8,4-8,6 m

Cho'kish uchun tuproq sharoiti turi - II (ikkinchi).

Ikkinchi muhandislik-geologik element (EGE-2) yossimon, jigarrang rangli, makrog'ovak, konsistensiyasi yarim qattiqdan yumshoq-plastmassagacha bo'lgan tuproqlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ikkinchi elementning tuproqlari 10,5 dan 13,3-13,4 metrgacha chuqurlikda joylashgan. Ochilish qalinligi 2,8-2,9 m.

Gruntning muzlash chuqurligi – 0.70 m.

3.2. Bosh reja.

Ob’ekt Chilonzor tumani, Katta Chilonzor-2 MFY, Arnasoy ko'chasi, 17-uyda joylashgan.

Bosh rejada kutish zalini loyihalash ko‘zda tutilgan.

Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichi:

Umumiy maydon – 32 108,7 m;

Qurilish maydon – 516,5 m;

Ko‘kalamzorlashtirilgan maydon – 10 093,7 m;

Qattiq qoplama – 13 929,6 m.

3.3 Arxitektura – rejalashtirish yechimlari.

Bino bir qavatli bo‘lib, rejadagi tarx o‘lchami 44,4x16,5 m.

Qavat balandligi h=3,4 metr.

Binoda tambur, tekshirish punkti, xavfsizlik xonasi, kutish xonasi, bolalar o’yin maydonchasi, ovqatlanish zali, oshxona, ayollar erkaklar va nogironligi bo’lgan shaxslar uchun xojatxonalar, ona va bola xonasi, dam olish xonasi, psixolog xonasi, Open space (bemorlarni ko’rikdan o’tqazish) qabul xonasi va boshqalar mavjud.

Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichi:

Umumiy maydon – 491,7 m;

Foydali maydon – 491,7 m;

Qurilish maydon – 516,5 m;

Qurilish hajmi – 1756,1 m.

Tashqi pardozlash:

Poypesh – yaxshilangan suvoq va keramogranit qoplama;

Devor – Travertin buyoq.

Tom qoplama – sendvich panel (bazalt tolali izolyatsiya bilan);

Ichki pardozlash:

Devor – suv emulsiyasi bilan bo‘yalgan, namlik mavjud xonalarda keramik plita;

Shift – osma shift, suv emulsiyasi bilan bo‘yalgan;

Pol – laminat, keramik plita;

Eshik – alyumin profil, MDF;

Rom – metalloplastik profil;

Vitraj – alyumin profil;

3.4. Konstruktiv yechimlari.

Konstruktiv yechimi – temirbeton karkas.

Poydevori – lentasimon monolitli temirbeton.

Ustun va rigellar – 400x400 temirbetondan.

Tashqi devorlar – tashqi devor qalinligi 300 mm bo'lgan gazbeton bloklar.

Pardevorlar –gipsokarton.

Zinapoya – monolit temirbeton.

Tom yopmasi – sendvich panel (bazalt tolali izolyatsiya bilan).

3.5. Yong‘in xavfsizligi.

Konstruksiyalarning chegaraviy holatiga ko‘ra, binoning olovbardoshlik darajasi – III.

Konstruktiv yong‘in xavfi bo‘yicha sinfi – S0.

Funksional yong‘in xavfi bo‘yicha sinfi – F 3.2.

Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida quyidagilar ko‘zda tutilgan: Binoga yetib kelish va atrofida aylanma yo‘llar; evakuatsiya chiqishlarning soni norma talablariga mos; binoning tashqi (issiqlik izolyatsiyasi mineralvata) va ichki devorlari yonmaydigan materiallar bilan ishlov berilishi; evakuatsiya yo‘llaridagi eshiklarning ochilishi chiqish yo‘nalishiga qaratilgan; barcha xonalarda avtomatik yong‘in signalizatsiyasi; yong‘in vaqtida ovozli xabar berish tizimi; evakuatsiya chiqish joylarda “Chiqish” yozuvli yonuvchan elektron tablo; tashqi yong‘inni o‘chirish maqsadi uchun R-150 m radiusda mavjud yong‘in gidrantlari (1 dona).

3.6. Energiya tejamkorlik.

Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- devorlar 50 mm qalinlikda bazalt plita bilan qoplangan.

- obyekt tom qismida 48 ta quyosh paneli va 1 ta quyosh suv kollektorlari loyihalangan.

- yoritish svetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan va boshqalar.

3.7. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulaylik yaratish.

Ishchi loyihada ShNQ 2.07.02-24 «Qurilish obyektlarini nogironligi bo‘lgan va hayot faoliyati cheklangan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish» shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan shart-sharoitlar ko‘zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, havoni tozalash, elektr ta’minoti, aloqa va signalizatsiya, videokuzatuv, suv ta’minoti va

kanalizatsiya, xavfsizlik va yong‘in signalizatsiyasi, yong‘inni avtomatik o‘chirish va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART kelishuvi va loyihalash topshrig‘iga asosan).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko‘rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2026-04-24 dagi 281029975 -sonli xulosasi;

- Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shaxri filiali tomonidan 2024-yil 31 iyuldagi 01-02/14-1414-sonli Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **3 500 483 272** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **306 825 503** so'mga oshirilib,

3 807 308 775 so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **2 641 103 131** so'm

Asbob-uskunalar: **758 279 704** so'm

QQS: **407 925 940** so'm

Ishchilarning ijtimoiy ta'minotni hisobga olgan holda o'rtacha soatlik ish haqi qiymati 2025 yil 2-chorakdan 4-chorak qiymatiga o'zgarganligi, Soha ekspertlari tomonidan berilgan taklif va e'tirozlarga asosan Isitish va shamollatish tizimi hamda Tashqi elektr ta'minoti tizimlariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar natijasida qurilishning yakuniy qiymati dastlabki qiymatdan oshdi.

Chet el uskunalari, mebel va inventarlarning narxi ekspertiza tomonidan ko‘rib chiqilmagan.

6.2. Ishchi loyiha ekspertiza ko‘rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, texnologik, muhandislik tarmoqlari, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari bo‘yicha izohlarisiz taqdim etilgan.

6.3. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

6.4. Buyurtmachi ishchi loyihani tastiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi tavsiya etiladi.

6.5. Yakuniy qurilish qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng, haqiqatda (po faktu) bajarilgan ishlar va nazorat o‘lchovlari natijalari asosida aniqlansin.

6.6. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

6.8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-sonli qarorining 7-ilovasiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma’lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning

ishonchliligi bo‘yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo‘yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. “Toshkent viloyati, Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi hududida bemorlar va kuzatuvchilar uchun alohida “kutish zali” binosini qurish” ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

7.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o‘tkazish uchun obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Ishtirokchi ekspertlar: Olxovskaya Viktoriya Kamilovna, Ikromov Muxiddin Sodiqovich, Murodillayev Yashnarbek Otamurod O‘g‘li, Axmedov Rustambek Xamidovich, A’zamxo‘jayev Oqilxo‘ja A’loxo‘ja O‘g‘li

Bosh ekspert **ABDURAXMANOVA DILFUZA BAXROMOVNA**